

Atamurodova Qunduzoy Abdunabiyeva

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Pedagogika Fakulteti

Boshlang'ich ta'lim Kafedrası o'qtuvchisi

qatamurodova@gmail.com

DTPI, Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3BT-21 guruh talabasi

Hakimova Nigina Ma'mur qizi

hakimovanigina32@gmail.com

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti

3-bosqich talabasi Salomova Umida Murodullo qizi

salomovaumida5@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada 3- sinflarning ona tili va o'qish hamda ona tili o'qish savodxonligi darsliklari tahlil qilingan. Bir biridan farqi, afzalliklari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: grammatika, nutq, mashq daftari, nutqiy jarayon, fikr, kommunikativ, darslik.

Eski maktabda o'qish bilan yozish bir vaqtda o'rgatilmagan, avval faqat o'qish o'rgatilgan. O'qish hijo (bo'g'in) usuli bilan o'rgatilgan. O'qishga o'rgatishning „hijai qadimiy" deb atalgan usuli uzoq vaqtlar davomida hech qanday o'zgarishsiz davom etib kelgan. Hijoi usulida o'qishga o'rgatishni 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich. Harflaming nomini yodlatish („harfiy metod"). Bu metodning mohiyati quyidagilardan iborat bo'lgan: bir necha yildan beri o'qiyotgan bolalar maktabxonaga yangi kelgan bolaga bir necha kichik-kichik surani og'zaki yodlatgan. Bola aytayotgan suradagi so'zlarining ma'nosini tushunmay, suralarni birin-ketin yodlab olgan, bu orada taxminan bir yilga yaqin vaqt o'tgan. Shundan keyin arab alifbosi yodlatila boshlangan; bola uyidan har ikki tomoni randalanib silliqlangan maxsus taxta olib kelgan. Maktabdor taxtaning bir tomoniga qora siyoh bilan 28 ta arabcha harfning yolg'iz shaklini alifbo tartibida bandlarga bo'lib yozib bergan.

2-bosqich. Bo'g'in hosil qilish. Harflar nomi yodlab bo'lingach, bo'g'in hosil qilishga, ya'ni „ze r-u z a b a r“ ni o'rgatishga o'tilgan.

Eski maktabda „ze r-u z a b a r“ (zabar, zer, pesli) har xil o'rgatilgan.

Masalan, ba'zi domlalar v (be, za b a r-b a), b e -ze r-b i, be-pesh-bu, te - za b a r-ta kabi o'rgatsalar, boshqalari be za b a r ba, te za b a r ta kabi, yana birovlar b e -za b a r-a ; z e r -i, p e s l t -u ; te -za b a r-a , ze r-i, p e s h -u deb o'rgatganlar.

3-bosqich. Bo'g'inlarni qo'shish. Eski maktabda bo'g'inlarni qo'shish „abjad" bilan boshlangan. Maktabdor taxtaning ikkinchi tomoniga arab tili alfavitidagi 28 ta harf jamlangan 8 so'zni „zer-u zabar" bilan yozib bergan. Bolalar bu 8 ta so'zni birin-ketin hijoi

usulida o'qib yodlab olganlar. Masalan, abjad so'zi alifga zabar qo'yib, began itrislurilsa ab, jinigrt zabar qo'yib, dolga urishtirilsa ja d , bularning ikkisidan abjad hosil bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan 1993-yil 2-sentabrda „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda bu qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Bu alifbo, birinchidan, og'zaki talaffuz bilan yozma nutq mosligini ta'minlaydi, ikkinchidan, jahon xalqlarining 30 foizdan ortig'i mana shu yozuvdan foydalanadi. Bu esa xalqaro aloqa aralashuvni birmuncha yengillashtiradi.

Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosidagi harflar ham bosmasdan, ortiqcha jimjimasiz, qo'l uzmasdan bog'lab yoziladi. Shuning uchun yozuvga o'rgatish metodikasida harflarni qo'shishga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo'shish yo'lini bilishlari lozim.

Yuqoriga ko'rdatib o'tilganidek, o'quv yilining IV choragidan boshlab haftada bir marta husnixat uchun alohida dars soati ajratiladi. Bu davr bolalarning yozuv malakalari shakllanishida muhim rol o'ynaydi, chunki husnnixat mashqlari ona tili darslari bilan bir vaqtda olib boriladi.

Ammo alifbedan keyingi davrda yozuvga o'rgatish sharoiti biroz o'zgaradi chunki, o'quvchilar endi yozuv daftariga emas balki oddiy ikki chiziqli daftarga yozib mashq qiladilar. Ular endi ko'proq o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yozuvga tayanadilar.

Bu davrda chiroyli yozuv darslarining rejasini quyidagicha tuzish mumkin:

Birinchi dars. Kichik va katta I E, Sh, sh, L,l ,M, m harflarini taqqoslab yozish, shu harflar ishtirokida so'z va bo'g'inlarini yozish.

Ikkinchi dars. Kichik k, q, ch, v va katta K, Ch harflarini yozib mashq qilish. Uchinchi dars. Kichik p, v, r, t va P, V, R, T harflarini yozib mashq qilish.

Bu davrda chiroyli yozuv darslarining mazmuni savod o'rgatish davridagiga nisbatan yozuv malakarini yanada kuchliroq shakllantirib borishga qaratiladi. Ammo 6- 7 yoshli bolalarning qo'l va barmoq muskullarini charchatib qo'ymaslik kerak. Shuning uchun har bir yozuv darsida 2- 3 marta jismoniy mashq minutlari o'tkazilishi lozim. Mashqlar o'tirgan va turgan holatda yoki muzika sadolari ostida o'tkazilishi ham mumkin. Bunday mashqlar o'quvchilarning kayfiyatini ko'taradi hamda ishlash qobiliyatini tiklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1."O'zbekiston adabiyoti va san`ati" gazetasining 2011-yil 7-sonidan.
- 2.Vohidov R. A.Navoiy va ilohoyot Buxoro,"Buxoro nashriyoti"1994.
- 3.Sultonmurod Olim.Luqmayi Halol.Toshkent,"Ma`naviyat",1997.
- 4.Erkaboyev."Bolalar adabiyoti"